

9-mavzu: Maktabgacha ta`lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash.

Reja:

- 1.Tabiiy buyumlar bilan ishlash usullari.
- 2.Tashlandiq buyumlardan o`yinchoq yasash.

1. 1.Tabiiy buyumlar bilan ishlash usullari

O`zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, o`simliklar, qushlar, suvlar, o`ziga xos hayvonot dunyasiga ega bo`lgan boy o`lkadir. Respublikaning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalaniladigan xom ashyo bo`lishi bilan bir qatorda, tabiiy material bo`lib ham xizmat qiladi.

O`simliklar orasida mevali va manzarali daraxtlar iqlimni, obxavoni tozalab kislorod bilan ta`minlaydi hamda insonlar salomatligini tiklashga xizmat qiladi. Daraxtlarning shohlari, ildizlari, barglari, shuningdek ekinlardan sabzavat, rezavorlar urug`lari narsa va buyumlar yasahda alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirishni tabiatdan to`g`ri foydalanish tabiatni qo`riqlash umumdavlat tadbirlari qatorida rejali amalga oshirilib, realizatsiya qilinmoqda.

Tabiiy materialni bolalar dastlab tarbiyachi rahbarligida sayr vaqtida to`playdilar. Tabiiy materialni to`plash jarayonida bolalar atrofdagi o`simlik dunyosi, hasharotlar bilan tanishadilar, daraxt barglari, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, qushlarni patlarini, tabiiy materialni qachon va qanday to`plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo`riqlash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo`lish, hamamizning burchimiz ekanligini haqida bilim malakalarga ega bo`ladilar.

Tabiiy narsalarni to`plash va saqlash:

Tabiiy materialni butun yil davomida to`plash lozim, chunki yilning har bir fasli o`z xususiyatlariga egadir. Erta bahorda lola gulini quritib olish, terak popugini, daraxt va butalarning yosh novdasini, yozda rezavorlarning donalarini, turli gullarni, kuzda daraxtlarning xilma-xil barglari, mevalarini va shu kabilarni to`plash mumkin.

Tarbiyachi-pedagoglar tomonidan tabiiy materiallarni to'play otgan har bir kishi tabiiy materiallarni tartibli yig'ish va tayyorlash zarurligini bilishi, barglarni to'plash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini qo'pollik qilib sindirmaslik, gul va shu kabilarni o'ylamasdan zarar keltirish tabiatga nisbatan hurmatsizlik, vahshiylik ekanligini bolalarga tushuntirib boriladi.

Tabiatga sayr-ekskursiya, qisqa turistik poxodlar, kattalar mehnatini kuzatish orqali tabiiy materiallarni to'plash mumkin.

Tabiiy materiallarni to'plash va ular bilan ishlash tabiat mashg'ulotlari bilan bevosita aloqadordir. Tabiiy materiallarni to'plash bo'yicha uyushtirilgan ekskursiyalarda bolalar tabiatni qo'riqlash qonunlari bilan amalda tanishadilar. Bolalar atrof-tabiatni shaxsan kuzatishlari, tabiat elementlari va hodisalarini aniq idrok etish asosida ma'lum bilimlarga ega bo'ladilar. Kichik va o'rta guruh bolalari tabiiy materiallarni dastlab tarbiyachi rahbarligida uyushtirilgan sayrlarda to'playdilar. Tayyorlov guruh bolalari esa bu ishni mustaqil bajara oladilar.

Respublikamiz tabiati, boy, go'zal va xilma-xildir, shuning uchun o'z kasbiga qiziqqan va izlash ko'nikmasiga eg'a bo'lgan tarbiyachi-pedagoglar o'z mashg'ulotlarini ko'rgazmali tarzda olib borishlari mumkin.

1. O'simliklarni quritib olish. O'simliklarni to'plash va quritib olishda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo'lishi kerak. O'simliklarning gullari, barglari, poyasi va shu kabilarni to'plash maqsadida ekskursiyaga chiqilganda bir juft gazeta, qaychi bo'lishi shart. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi. Gullarni qo'l bilan sindiri bolib bo'lmaydi, aks holda poyasi zararlanishi mumkin. Quritib olishga mo'ljallangan o'simliklar har qanday namlik (yomg'ir yoki shudring)dan holda bo'lishi kerak, aks holda o'simlik quritilganda unda dog'larning izi qoladi. Quritilayotgan o'simliklarda tabiiy rangni asrab qolishning eng muhim sharti ularni shamol o'tib turadigan joyda, elvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O'simliklarni quritish 3 sutka-kundan ortiq davom etmasligi zarur chunki, turli o'simliklarni to'plashni o'z muddatlari bor.



2. Gerbariy, gerbariy ramkalarida quritish. Gerbariy ramkalarida quritilgan o'simliklarning ko'pchiligi o'zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o'simlik yumshoq qog'oz yoki gazeta orasiga solib qo'yiladi. Har bir varaq qog'oz va o'simlik o'rtasiga yana bir necha qavat qog'oz yoki gazeta qo'yiladi, chunki quritilayotgan o'simlik o'zidan namlik chiqaradi. Shundan so'ng, papka ichiga to'rsimon rama shaklida qog'oz o'rtasiga qo'yilib, ochiq havoda saqlanadi. Agarda havo harorati kechqurun va kechasi juda pasayadigan bo'lsa, quritilayotgan o'simlik issiq va quruq joyga olib kiriladi. Murakkab gullilar quritilganda to'p gullilar poyasidan ajratilib pastgacha joylashtiriladi, so'ngra uning ustiga paxtani aylana qilib qo'yiladi, bunda faqat barglar usti yopilib, gulning o'rtasi ochiq qoldiriladi. Yirik to'p gulli o'simliklarning gulini quritish murakkab tayyorgarlikni talab qilganligi uchun ham kichik, orta guruh bolalari ularni quritish bilan shug'ullanmaydilar.

O'simliklarni gerbariy va applikasiya ishlari uchun quritishda ishlov berish hamda tayyorlash usullari M. P. Berimchga o'zining «O'simliklarni tabiiy rangini saqlagan holda quritish», A. Mamatovaning «O'simliklarning tabiiy rangi va shaklini saqlagan holda gerbariy qilish» kitoblarida yaxshi bayon etilgan.



3. Pressda quritish. Orasiga o'simlik solingan qog'ozlar gerbariy papkasi o'rniga ikkita faner listlari o'rtasiga joylanib, og'ir narsa

bostirib qo'yiladi. Og'irlik pressga (temir yoki shunga o'xshash narsadan tayyorlangan asbob) qancha o'simlik joylashtirilganiga bog'liq bo'ladi. Mayda nozik o'simliklar kam og'irlikni va quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2—3 soatdan so'ng qog'oz orasi-prokladka (oraga qo'yilgan qog'oz yoki mato) almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.



Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog'oz orasida o'simlikni qo'yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So'ngra ustki qavatdagi gazetani olib, quritilayotgan narsani shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so'ngra gazetani yopib yana dazmollanadi. O'simlik 2—3 daqiqada quriydi va u o'zining tabiiy rangini yo'qotmaydi. Agarda quritilgan narsa ko'tarilganda o'z tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi, agarda u sinib, maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi.

Quritilgan o'simliklar, ayniqsa gullar gidroskopik bo'lib, nam tekanda ular tezda ildiz otadi, shuning uchun foydalanishga qadar ularni quritilgan joylarida, varaqlar orasida, yopiq papka, quti, shkaflarda saqlagan ma'qul. Bunda ular pechka va shu kabi isitish asboblaridan uzoqroqda bo'lishi kerak, aks holda ular ortiqcha qurib, sinuvchan bo'lib qoladi. Zarang, jo'ka, shum tolning urug'larini kuzda urug'lar pishib daraxtdan to'kilganda teriladi. Biroq bu ishni kech kuzga qoldirib bo'lmaydi, aks holda ular ortiqcha qurib sinuvchan bo'lib qoladi. To'plangan urug'lar qutichalarda quruq, ammo issiqlik manbalaridan uzoqroq joyda saqlanadi.

4.Poxol (somon).Poxol-somondan sanoatda to'qish va dekoratsiya, applikatsiya ishlarida (qutichalar, panellar, qalamdonlar) va shu kabilarga bezak berishda foydalaniladi. Bu maqsadda bug'doy, javdar, arpa-somonlari ishlatiladi. Agarda bu o'simliklarning poyasi yaxshilab ko'rib chiqilsa, poyaning o'zaro bo'g'imlar bilan birikkanligini, eng yuqoridagi qismi ingichkaroq, uzunroqligini ko'rish mumkin. Poya ana shu bo'g'imlardan qirqib, qismlarga ajratiladi. Qirqilgan poya qismlari ko'rinishi va uzunligiga ko'ra sortlarga ajratiladi: eng uzuni I sort-nav, kaltarog'i II, eng qisqasi III sortlar bo'lishi mumkin.



Applikatsiya va bezash ishlarida ishlatishdan oldin somon bog‘lami chuqurroq idish, (tog‘araga)ga solinib, ustidan qaynoq suv quyiladi va tog‘orada bir kun saqlanadi. Bir kundan so‘ng uni idishdan olib, suvi silqitib tushiriladi va har birini uzunasiga o‘rtasidan bo‘linadi.

Qirqqanda pastdan yuqoriga qarab qirqiladi. So‘ng rasomonning qirqilgan tomonini pastga qilib qo‘yib, iliq holatda dazmollanadi. Dazmolning qiziganlik va dazmollash vaqtiga somonni turli ranglarga kiritish mumkin.

Masalan, och-sariq, sariq, ochjigarrang, jigarrang. Dazmollangan somon ehtiyotlik bilan qutichaga solib qo‘yiladi.



Agarda somondan narsalar yoki qo‘g‘irchoq to‘qiladigan bo‘lsa, uni tog‘oradan namligida olib, yumshoqlik vaqtida 4—5 somondan iborat lenta to‘qiladi yoki bog‘ qilib bog‘lab, qo‘g‘irchoq yasaladi, to‘qilgan somon lentadan turli narsalar: shlyapalar, karmonlar va shu kabilar to‘qiladi.


Biz yashab turgan muhitimizda yong‘oq, meva va poliz ekinlarining urug‘lari (danaklari) keng tarqalgan bo‘lib, uni to‘plash va saqlash oson bo‘lgan material hisoblanadi. Yong‘oqni ishlov berilishi oson hamda pishiq materialdir. Agar, tarbiyachi


yong‘oqni qoliga olib ayniqsa, eryong‘oqni diqqat bilan bolalar bilan kuzatib faraz qilsalar, u yoki bu obraz (yong‘oq—toshbaqa, qo‘ng‘iz, qayiqchi eryong‘oq-qush, jonivorlar, ular tanalarining ayrim qismi) ko‘z o‘ngida gavdalanadi.

5. Meva va poliz ekinlarining urug‘(danak)larini yaxshilab yuvish, artish, quritish zarur. Ulariga moslab yasalgan quticha, g‘iloflarga solib qo‘yish kerak.



6. Qushlar qanoti kattapat, tanalarini qoplaydigan pat, par bo‘ladi. To‘plangan patlar yog‘ va har-xil chet narsalardan tozalanadi. Oq patlarni turli ranglarga bo‘yash qiyin emas. Rangli patlardan tabiiy ko‘rinishda foydalaniladi. Patlarni bo‘yashdan oldin yog‘ va boshqa chet narsalardan tozalanadi. Buning uchun uni 10 foizli sovun eritmasiga solib qo‘yiladi. Agarda patlarni bog‘lam qilib bog‘lab, eritmaga solinsa va eritma qaynash darajasigacha isitilsa yanada yaxshiroq bo‘ladi. Patlar ortiqcha qizib ketmasligi uchun uni eritmadan bir necha marta olib sovutiladi. Patlarni eritmadan olib, toza suvda chayiladi va ipga osib quritiladi. Qurigan patlarani bo‘yog‘ining qaynoq eritmasiga solinadi. Ipakni bo‘yaydigan bo‘yoqlardan ham foydalanish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasida patni mo‘y qalam yordamida rangli lak bilan ham bo‘yash mumkin.





2. Tashlandiq buyumlardan o'yinchoq yasash.



Mozaika monumetal dekorativ san'at asari turlaridan biridir. Inkrustatsiya mozaikaning maxsus turi hisoblanadi. Qadim davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materiallariga ko'ra ham, naqshi va rasmlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga egadir. O'rta Osiyoda madrasalar, maschitlar, xukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda monumental san'atga aylandi. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, interer devorlari va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi.

Mozaika ishlarida oyna, sopol plitalardan foydalaniladi. Laosda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mazaika asarlari yaratilgan, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik-kayfiyatini ulashadi.

Mozaika bu rasm sathiga ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sopol plita, gultoji barglari, urug', tuxum po'sti va shu kabilar) qo'yib chiqishdir.

Tuxum po'chog'ini butun asrash uchun tuxumning ikki uchi teshiladi va uning ichidagilari puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo'sh tuxum po'chog'iga ega bo'linadi. Bunday po'choqni sinuvchan bo'lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak. Tuxum po'chog'ining maydalanganligini har qanday xom va pishgan tuxumdan tayyorlash mumkin. Faqat ichki pardasi olib tashlanishi kerak.



Tuxum po'stidan mozaika

ishlarini bajarish uchun tuxum po'sti kerakli ranglarga bo'yaladi. Yuviq quritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Bo'yoq qurigandan keyin po'stni tanlangan rasimga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi. Tuxum po'stidan applikasiya qilishda shunday tasvirlarni tanlash kerakki, ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo'lmasligi kerak. Kontur qoraqog'oz orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

Avval rasm sathining bir qismiga elim surtiladi. U erga tuxum po'sti terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham ish shunday tartibda davom ettiriladi. Ortiqcha elim toza latta bilan artib tashlanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi. Bolalarning yoshi va guruhiga qarab, bunday ish odatda eng oddiy kontur-chiziqlardan boshlanadi.

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak, baliq tangalari, chig'anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil applikasiya ishlarini bajarish mumkin. Sazan, karp, okun, sudak va shu kabi baliqlarning tangalarini shilimshiqqligini ketkazish uchun avval issiq, so'ngra sovuq suvda yaxshilab yuvish, gazeta yoki taxta ustida quritish uchun yoyib qo'yish kerak. Baliqning tangasi quritilganda buralib ketadi, shuning uchun ustiga fanera yoki qalinroq karton qo'yib, tosh yoki biror narsa bostirib qo'yish lozim.



Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiqmateriallardan o'yinchoqlar yasash.

Tabiiy va tashlandiq ashyolar dan foydalanib tovuq o'yinchog'ini yasash.

Mashg'ulotning maqsadi: "Tovuq" o'yinchog'ini yasash.

Bolalarni narsa yasayotganda extiyotkorlikka, bir yo'la bir necha ish quollaridan; oddiy qalam, qaychi, elim va mo'yqalamdan to'g'ri foydalanishga, o'z mehnatidan zavq olishga o'rgatish: bolalarning tovuq va tuxum haqida tassavurlarini kengaytirish: uy hayvonlari va parrandalarga nisbatan mehr-muhabbatlarini mustahkamlash.

Mashg'ulotga tayyorgarlik:

Maktabgacha ta'lim muassasasida tovuqlar bor bo'lsa bolalar bilan birgalikda tovuqlarni diqqat bilan kuzatish, tuxumni ko'zdan kechirish, she'r, topishmoqlar yod oldirish tovuqlarga don berish.(oldinroq o'tkazilishi mumkin).

Mashg'ulotni jihozlash:

Ichi bo'shatilgan tuxum po'chog'i, oqqog'oz, oddiy qalam, elim, buyoq, mo'yqalam.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar bugun ertalab nonushtada nima edik? ha, to'g'ri: tuxum edik. Tuxum judamazali. Sayrda sizlar bilan nimalarni kuzatgan edik? Qani kim esladi? ha, tovuqlarni. Ularning nimalari bor edi? Bolalarning javobi dumi, ko'zi, qanotlari. Bilasizlarmi bolalar, tuxumni eb bo'lgandan keyin uning po'stlog'ini tashlab yubormasdan, chiroyli o'yinchoqlar yasash mumkin, hozir biz sizlar bilan tuxum po'chog'idan o'yinchoq tovuqni yasaymiz.

Buning uchun extiyotkorlik bilan ichi bo'shatilgan tuxumni olamiz. Mana bu oq qog'ozga tovuqning yon qanotlarini, dumini mana bu oddiy qalam yordamida chizib olamiz va qirqamiz, so'ngra uni elimlab, tuxum po'chog'iga yopishtiramiz. Mana, tovuqning qanotlari hosil bo'ladi. Tumshug'ini ham yopishtiramiz. So'ngra

mo'y qalamni bu yoqqa tekkizib, dum, qanot uchlarini va ko'zlarini chizamiz.



Qaranglar, bolalar, tovuq o'yinchog'iga o'xshadimi? Sizlar ham tezroq ishni yakunlashga harakat qilinglar. Hozir hammamiz birgalikda jonli burchakka borib tovuqlarga suv va don berib kelamiz. (Sharoitni hisobga olgan holda).

Yuqorida keltirilgan mashg'ulot namunalaridan xulosa shuki, bolaning biror bir buyum yasashi yoki ayrim topshiriqni bajarishda, avvalo ularning qiziqishi har bir bola nazardan chetda qolmasligi hamda uning mehnat ko'nimasi va malakalarini tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinishi zarur.



Bolalarning biror muddat ichida masalan, oy yoki yarim yil davomidagi olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan mujassam mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi. Quyida taxminiy mujassam mashg'ulotlar rejasini havola etamiz.

Tarbiyachi tomonidan ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo'lajak ish namunasi ko'rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko'rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so'ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiyada alohida e'tibor ob'ekt (eman, qayrag'och, chinor, zarang, akatsiya daraxtlari, hashorotlar, ninachi)lar beriladi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli qilib sodda bayon etib beriladi: o'simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko'ryapti. Barglarni to'kish bu o'ziga xos himoya turidir, chunki, barglar suvni ko'p bug'lantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi.

Shundan keyin bolalarning e'tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hashorotlarning tuzilish shakllari mashg'ulotlarda hashorotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to'plangan barglar esa material bo'lib xizmat qiladi.

Kapalakchalar mato, plastilin, qog'ozdan yasalishi mumkin. Tashlandiq oq rangli matodan kapalak tikilib ichi qiyqim yoki paxta bilan to'ldiriladi. Tarang holatda rangli bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Mayda urug'lardan foydalanib yoki chizish orqali, qanotchalar, ko'zchalar hosil qilinadi. Tayyor kapalak oyichoqlarni ko'rib bolalar hursand bo'ladilar.



Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyin mashgulotda bolalar applikatsiyalarni zo‘r ishtiyoq bilan namoyish qiladilar. Mashg‘ulotdan so‘ng bolalar bilan quyidagi tartibda savol-javoblar o‘tkazish mumkin.

1. Ekskursiyada qaerda bo‘ldik?

-qanday daraxtlarni ko‘rdik, ularning nomi qanday?

-ularning barglarining shakli bir xilmi?

-qanday hashorotlarni ko‘rdik?

2. Namuna tahlili:

-kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?

-uning qismlari qanday joylashgan?

-uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?

3. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

a) kapalakning ayrim qismlari (tanasi, qanotlari)ning joylashishini grafik tasvirlash;

b) kapalakning tanasi va qanoatlari uchun shakli hamda o‘lchamlari bir xil bo‘lgan barglarni topish;

v) ularni qog‘ozda joylashtirish;

d) ishni amaliy bajarish.

g) elimlash ishlarini tartibli bajarish;

d) kapalakning ko‘z va mo‘ylarini to‘g‘ri tasvirlash, ishni yakunlash.

Tabiiy va tashlandiq matolardan gullar ham yasah mumkin. Rasmga qarab bajarish tavsiya etiladi.



“Kichkintoy ustaxonasi”

Tabiiy materiallardan "Tizimcha" yasash; kartondan "Stakancha", matodan "Mo'yqalam artgich". Tabiiy materiallardan "Ninachi va chumoli" yasash kabi.

Mashg'ulotning vazifalari.

Bolalarni tabiiy materiallardan, kartondan, matodan foydalanib, turli ashyolar yasashga o'rgatish. Qo'l mehnati bilan shug'ullanishga o'rgatishni davom ettirish. Bolalarda o'zlarining mehnat ko'nikmasi va malakalarini mustaqil ravishda qo'llashni, intilishlarni tarbiyalash. Bolalarni tabiatni asrash va muhofaza qilishga o'rgatish.



Mashg'ulotni jihozlash: dub daraxti, kashtan daraxti mevalari, na'matak guli mevasi, patlar, plastilin, novdachalar, karton qog'oz, elim, ip, igna, mato qiyqimlari.

Mashg'ulotning borishi.

Bolalar, o'lkamizda oltin kuz fasli kezmogda. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar pishadi, to'g'rimi? Manzarali daraxtlarning mevalari ham pishib, ko'chalarimizda, xiyobonlarda daraxtlar ostiga to'kilib yotibdi. Bilasizmi, bolalar bugungi mashg'ulotimizda sizlar bilan ana shu manzarali daraxt mevalaridan o'yinchoqlar yasaymiz.




Tizimcha yasalishi uchun qalinroq ip olamizda kashtan mevasini teshib, ip o'tkazamiz. Dastlab bolalar 5 raqami ichida sanashni o'rganishlari sababli, tizimchaga 5 ta mevani ipdan o'tkazib chiqamiz. Bu tizimchani eman, daraxti mevasidan ham tayyorlash mumkin. Agar meva bir oz qurib qolgan bo'lsa, ozroq suvga solib qo'yilsa, ustki po'stlog'i yumshaydi va tizimchani tayyorlash mumkin bo'ladi. Qani kim sanab beradi?



Bolalar javobi: -barakalla. Bolalar, sizlar bilan mana bunday stakanchalar tayyrlaymiz. (Qog'oz qalinroq bo'lishi kerak). Kvadrat shaklidagi karton qog'oz olib, undan doira qirqamiz. So'ng, to'rtburchak shaklidagi qog'ozning pastki qismini 1sm enini qoldirib arratishlariga o'xshatib kesib chiqamiz, ikki tomonini elimlab, pastki qismidagi qirqilgan bo'laklarga elim surtamiz va doirachaga elimlaymiz. Stakancha tayyor. Bolajonlar, sizlar ham stakanchalar qanday tayyorlanishini ko'rdinglarmi?.

Barakalla! Stakan tayyor bo'ldi, endi mo'yqalamni artish uchun artgich, salfetka, tayyorlaymiz. Keraksiz matolardan bir necha kvadratchalar qirqib undan doirachalar hosil qilamiz. Doirachalarni ustma-ust qo'yib, o'rtasidan yaqinlashtirib ichiga qo'yamiz. Mana mo'yqalam artgich ham tayyor bo'ldi.



Bolalar, o'yinchoq ham yasaylik, deyapsizlarmi? Albatta, o'yinchoqlar ham yasaymiz. Hozir na'matak va kashtan daraxtining mevasidan "Ninachi va chumoli"ni yasaymiz. Buning uchun kashtan mevasini olib, unga sal kichikroq kashtan mevasidan chumolining bosh qismini o'rnatamiz, oyoq-qo'llarini esa novdadan yasab, o'rindiqqa o'tkazib qo'yamiz, ko'zlarini esa plastilindan yasaymiz. Ninachining tanasi kashtan mevasidan tayyorlanib, uning orqa tomoniga gugurt cho'p o'rnatib, kichik kashtandan bosh qismni yasaymiz. Manzarali daraxt mevasidan qanotlarini yasab, plastilin yordamida yopishtiramiz. Mana, ninachimiz ham tayyor, qani eslangchi, ninachi va hashoratlar haqidagi qanday she'rlar bilamiz?



Bolalar javobi rag'batlantirilib, mashg'ulot yakunlanadi.

Bolalarga chiqindi materiallari (ip, shoyi, mo'yna, polietilen kabilar)dan foydalanib har xil mazmunda applikatsiyalar tuzishng, matolardan o'yinchoqlar, turli bayram ertaliklari uchun ertak qahramonlarining, quvnoq qiziqchilar, petrushkalar kiyimlarini tayyorlash mumkinligi haqida tushunchalar beradi.



Bolalar bog'chalarida "Mohir qo'llar" to'garagini tashkil etish va unga iqtidorli bolalarni jalb etish mumkin. Bunda bolalar to'garak mashg'ulotlari jarayonida turli badiiy tabiiy va tashlandiq materiallar, rangli qog'oz, karton va x.z.lar bilan ishlash usullarini o'rganadilar. O'z tajribalari, bilim va ko'nikmalarini ham mustahkamlanib boradi.



Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tabiiy materiallardan stol yoki tut daraxti, novdalaridan "non savati"ni va savatcha to'qish archa, dub daraxtining mevalaridan, jo'xori so'talaridan o'yinchoqlar yasashga o'rgatiladi. Jo'xori so'tasining ustidagi po'stlog'i, barglaridan

eshik ostonasiga yoziladigan gilamcha to‘qish archa daraxtning mevasidan esa toshbaqa, yong‘oq pallasidan kema, dubdan qo‘shimcha manzarali daraxtlarning mevasidan odamchalar, tipratikon yasaladi: ular duradgorlik elimi yordamida qism - qism yopishtiriladi. Shuningdek, zarqog‘ozdan foydalanib, har- xil munchoqlar, devorga ilib qo‘yiladigan sovg‘alar tayyorlash ham mumkin. Uni tayyorlash uslubi quyidagicha



tanlangan tasvir zarqog‘ozga chizilib, tasvirdan tashqari joylari sezmaydigan sterjenli ruchka yordamida teshiladi. Bu usul misgarlikdagi chekanka usulini eslatadi. Tayyor bo‘lgandan so‘ng tasvirli zarqog‘oz kartonga qoplanadi va chetlari kartonning orqa tomoniga buklab qo‘yiladi, orqasiga ilgich qilib, osib qo‘yish mumkin. Bu buyumdan bayramlarda, tug‘ilgan kunlarda sovg‘a tariqasida foydalanish qulaydir. Bolalar o‘zlari yasagan o‘yinchoqlarni birgalikda ko‘rib, chiroyli qilib tayyorlaganlarini ajrata oladilar va bu ishni xursandchilik bilan bajaradilar. Bolalarda bu ishlar orqali o‘z mehnatlari natijasidan zavqlanish, mehnatga muhabbat, tejamkorlik, g‘amxo‘rlik kabi his-tuyg‘ular rivojlantirilib boriladi.



Nazorat savollari.

1. Tabiiy materiallar bilan qanday ishlanadi?
2. Tabiiy narsalarni qanday to'plash, quritish va saqlash mumkin?
3. Gerbariy tayyorlash texnologiyasi qanday amalga oshiriladi?
4. Mozaika deganda nimalarni tushunasiz?
5. Tabiiy materialdan mozaika ishlari va ularning turlarini aytib bering?
6. Tabiiy va tashlandiq materiallarga nimalar kiradi?
7. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallardan qahday o'yinchoqlar yasash mumkin.
8. Tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash va unga qo'yilgan didaktik talablarni aytib bering?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yisha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013